



DIQQAT YETISHMOVCHILIGI RIVOJLANGAN BOLALARDA KOGNITIV BUZILISHALAR STRUKTURASI VA KORREKSIYASI

Ibadullayev B.B, Nematov B.A.
Urganch davlat tibbiyot inistituti

Annotatsiya: Mazkur tezisda diqqat yetishmovchiligi rivojlangan bolalarda kognitiv buzilishlar strukturasi va korreksiyasi haqida bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: diqqat yetishmovchiligi, kognitiv buzilishlar, psixokorreksiya.

Ushbu tezis maktabgacha yoshdagi bolalarda giperaktivlik va diqqat yetishmovchiligi sindromi (GDYS) bilan bog'liq kognitiv (diqqat, xotira, ijrochi funksiyalar) va tizimining integratsiyasi buzilishlariga bag'ishlangan. Kognitiv disintegratsiya bolalarning xulq-atvori, ijtimoiy moslashuvi va maktabga tayyorgarligiga qanday ta'sir qilishi yoritilgan. So'nggi yillarda butun dunyoda maktabgacha yoshdagi bolalar o'rtasida giperaktivlik va gididqat yetishmovchiligi sindromi (GDYS) ko'payib bormoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu sindrom 4–6 yoshli bolalarning taxminan 5–7 foizida uchraydi. O'zbekistonda ham bu ko'rsatkich sezilarli darajada oshgan, ayniqsa maktabgacha ta'lim muassasalarida psixologik xizmatga murojaat qilish holatlari ko'paygan.

Maqsadi – GDYSda kognitiv tizimlar integratsiyasining buzilish mexanizmlarini ochib berish va psixokorreksion ishning samarali usullarini taklif etishdir.

Material va metodlar: tadqiqotning ob'ekti sifatida 2022-2025-yillar mobaynida Urganch shahrida maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanayotgan giperaktivlik va diqqat yetishmovchiligi sindromi natijasida kognitiv funksiyalarda buzilish belgilari rivojlangan 20 nafar bolalar tanlab olingan.

Natijalar: o'tkazilgan statistik tahlil natijalariga ko'ra, giperaktivlik va diqqat yetishmovchiligi sindromiga ega bolalarda kognitiv buzilishlarning keng tarqalganligi aniqlandi. Eng yuqori ko'rsatkich diqqatning barqaror emasligiga to'g'ri kelib, u 90% holatda kuzatildi. Bu holat sindromning asosiy klinik belgilaridan biri ekanligini tasdiqlaydi. Ishchi xotira buzilishlari 80% bolalarda aniqlanib, bu ularning axborotni saqlash va qayta ishlash jarayonlarida qiyinchiliklarga duch kelishini ko'rsatadi. Ijro funksiyalari (rejalashtirish va nazorat qilish) buzilishlari 75% ni tashkil etdi, bu esa bolalarda maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etishda muammolar mavjudligini bildiradi. Shuningdek, idrok buzilishlari 70%, tafakkur jarayonlarining sustligi 65% va nutqiy rivojlanishdagi qiyinchiliklar 60% holatda qayd etildi. Bu natijalar kognitiv faoliyatning deyarli barcha komponentlari turli darajada zararlanganligini ko'rsatadi.

Xulosa: bog'cha yoshidagi bolalarda giperaktivlik va diqqat yetishmovchiligi sindromi – bu kognitiv va psixoemotsional tizimlar o'rtasidagi integratsiyaning buzilishi bilan tavsiflanadigan murakkab nevropsixologik holatdir. Ushbu buzilish bosh miyaning prefrontal sohasi va boshqa tuzilmalari o'rtasidagi funksional aloqalarning yetilmasligiga asoslanadi. Klinik darajada bu

Date: 12 May 2026

impulsivlik, diqqat beqarorligi, emotsional tartibsizlik va ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar sifatida namoyon bo'ladi.

Kelgusida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bunday integratsiyaviy dasturlarni keng joriy etish, psixologlar va pedagoglarning malakasini oshirish, shuningdek, dasturlarning uzoq muddatli samaradorligini baholash bo'yicha tadqiqotlarni davom ettirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Madirimova L. O., Ibadullayev B.B., Komilova D.R. / Giperaktivlik sindromida kognitiv buzilishlar tibbiy-psixologik korreksiyasi// Fanlararo psixiatriya va addiktologiya jurnali// № 2, 2025. Vol. 1
2. Ибадуллаев, Б. Б., Сетиризаев, И. Б., & Курбонбоев, С. К. (2025). СУРУНКАЛИ ГАСТРИТ БИЛАН КАСАЛЛАНГАН БЕМОРЛАРДА АДАПТАЦИОН БУЗИЛИШЛАР КЛИНИК СРУКТУРАСИ ВА ПСИХОКОРРЕКЦИЯСИ. Modern digital technologies in education: problems and prospects, 2(5), 24-25.

